

Salom, aziz bolajonlar!

Odamlar uzoq vaqtlardan beri inson hayotini yengillashtirish yoki uni murakkab va xavfli ishlardan ozod qilishga qodir mexanizmlar yaratishni orzu qilganlar. Bu ajoyib mashinalar – robotlarning yaratilishiga olib keldi.

Bugungi kunda robotlar zavodlarda murakkab va bir xil harakatlarni bajarishlari kerak bo'lgan odamlar o'rnida tinimsiz mehnat qilyapti. Ular vayronalarni tozalash va ularning ostida qolgan odamlarni topishda qutqaruvchilar bilan birga ishlayapti. Robotlar og'ir yuklarni ko'tarish, ofitsiantlik qilish va jo'natmalarni yetkazib berish ishlarida, shuningdek, kasalliklarni davolash va murakkab operatsiyalarni bajarishda shifokorlarga katta yordam beryapti. Hozirgi kunda robot-yo'l boshlovchilar va robot-o'qituvchilar paydo bo'lmoqda.

Bizning darslikda ham o'zimizning aqlli va quvnoq robotimiz bor. U nafaqat informatikani yaxshi biladi, balki uni hayotda qanday qo'llashni ham tushunadi. Uning xabarleri va maslahatlarini diqqat bilan o'qing!





Qadrli o'quvchilar!

Biz axborot haqidagi ajoyib fan – Informatika va axborot texnologiyalari fani bilan tanishishda davom etamiz. Axborot bizni hamma joyda o'rab turadi. Biz uni o'ylab o'tirmasdan qabul qilamiz, qayta ishlaymiz, eslab qolamiz va boshqalarga uzatamiz. Bu yil axborotni boshqarishda yordam beradigan qurilmalar bilan tanishamiz va u bilan ishlashning foydali amaliy usullarini o'rganamiz.

Biz algoritmlar nima ekanligini, ular maktabda va hayotimizda qanday yordam berishini bilib olamiz. Informatika darslarida mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiramiz. Qiziquvchan va kuzatuvchan bo'ling!

Salom, aziz bolajonlar!

Men robot Uddaburonman.

Men sizlarni Informatika va yangi axborot texnologiyalari bilan tanishtiraman.

Sizga omad tilayman!



I bob. Axborot



Axborot

Biz axborot olamida yashayapmiz. Biz uni beshta sezgi a'zomiz orqali qabul qilamiz. Ko'zimiz bilan predmetlarning rangi, shakli, o'lchami va qanday joylashganini ko'ramiz, quloqlarimiz bilan turli xil tovushlarni eshitamiz, burnimiz bilan hidni, tilimiz bilan ta'mni, terimiz bilan esa issiq va sovuqni his qilamiz. Miyamiz olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va biz xulosalar chiqaramiz.

Axborot atrof-olam haqidagi ma'lumotdir. Olingan ma'lumotlar asosida bir fikrga kelish xulosa deb ataladi.



Dumaloq, nordon ta'mli,
limon hidli. Demak, bu limon!



1. Sinfdoshlaringiz bilan musobaqalashing. Ko'zingizni yumgan holda sizga taklif qilingan predmetni topishga harakat qiling.



2. Inson qanday sezgi a'zosi yordamida eng ko'p ma'lumot qabul qiladi?



3. Predmetni toping. Ko'k, to'g'ri to'rtburchak shaklida, qattiq, qog'ozdan yasalgan, varaqlash va o'qish mumkin.



4. Savollarga javob bering.

- Axborot nima?
- Xulosa nima?
- Odamda qanday sezgi a'zolari bor?

